

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 02, февраль

INNOVATION FAOLIYATDA KREATIVLIKNING O'RNI VA AHAMIYATI

Nekiyeva Umida N'ematovna

BuxDPI 2- bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada innovatsion faoliyatda kreativlikning roli va ahamiyatiga o'ziga xosliklari, kreativlik, ya'ni ijodkorlik, yangi g'oyalar, usullar yaratish to'g'risida so'z boradi. Maqolada innovatsion faoliyatda kreativlik o'rni qanchalik muhimligiga to'xtalib, kreativlikni shakllantiruvchi metodlar va ularning qo'llanilishiga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion faoliyat, kreativlik, ijodkorlik, yangi g'oyalar, yangi mahsulotlar, texnologiya, ilm-fan, raqobatbardoshlik, ijodiy muhit, takomillashtirish.

Abstract: This article talks about the role and importance of creativity in innovative activities, creativity, i.e. creativity, creation of new ideas, methods. The article focuses on the importance of the role of creativity in innovative activities, and special attention is paid to the methods that shape creativity and their application.

Key words: innovative activity, creativity, creativity, new ideas, new products, technology, science, competitiveness, creative environment, improvement

Аннотация: В данной статье говорится о роли и значении творчества в инновационной деятельности, творчестве, т.е. творчестве, создании новых идей, методов. В статье акцентируется внимание на значимости роли креативности в инновационной деятельности, особое внимание уделяется методам формирования креативности и их применению.

Ключевые слова: инновационная деятельность, креативность, креативность, новые идеи, новая продукция, технологии, наука, конкурентоспособность, творческая среда, совершенствование.

KIRISH Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion faoliyatini tashkil etish, ularni kreativ, kasbiy kompetentlikka ega, har tomonlama yetuk va barkamol shaxs qilib o'stirish oliy ta'lim muassasalari va bugungi kun pedagoglarining vazifasi etib belgilangan. Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda asosiy rol o'ynaydigan omillardan biri bu kreativlik hisoblanadi. Kreativlik - bu yangi va original g'oyalar, yechimlar yoki mahsulotlar yaratish qobiliyati. Bu insonning o'ziga xos fikrlash, muammolarni hal qilish va yangi

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 02, февраль

narsalarni yaratish qobiliyatini ifodalaydi. Kreativlik ko'pincha san'at, ilm-fan, texnologiya va kundalik hayotda qo'llaniladi. Bu jarayon odatda intuitiv va mantiqiy fikrlashni birlashtiradi, shuningdek, mavjud bilim va tajribalarni yangi kontekstlarda qo'llashni talab qiladi. Shu jumladan, mamlakatimizda pedagogik innovatsiyalarni rivojlantirish muammolari ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Innovatsion faoliyatni pedagogik nuqtai nazardan ko'rib chiqilib bo'lajak o'qituvchilarni birgalikdagi ijodiy faoliyatga o'rgatish, kreativ yondashuv asosida talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, innovatsiya va an'analar integratsiyasi asosida talabalarni ma'naviy ruhda tarbiyalash, innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ilmiy ishlar va mavjud amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsion faoliyatni shakllantirishda kreativlik bugungi kun uchun zaruriy shartlardan biridir. Kreativlikni rivojlantirish uchun o'qituvchi o'quv jarayoni uchun maxsus ijodiy muhit yaratish yo'llarini izlashi dars davomida kreativlik asosida bajariladigan topshiriqlarni qo'llash orqali o'quvchi yoshlarni fikrlarini teran bayon qilishga jalb qilishi mumkin va zarur.

Dastavval Sh.R.Toshpulatov "Innovatsion faoliyat - yangi bilim va texnologiyalarni yaratish, ularni ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etish" deb ta'riflaydi. U innovatsion faoliyatning iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikni oshirishdagi ahamiyatini alohida ta'kidlaydi.[6]

Shu bilan bir qatorda A. M. Abdukarimov innovatsion faoliyatni yangi g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish va bu orqali iqtisodiy tizimda yangiliklarni yaratish jarayoni sifatida tasvirlaydi. U innovatsiyaning iqtisodiy o'sishga ta'siri, raqobatbardoshlikni oshirish va resurslarni samarali boshqarishdagi o'rnini ta'kidlaydi.[1]

Innovatsion faoliyatga Z. X. Mirzaev quyidagicha ta'rif berib o'tadi. Olim innovatsion faoliyatni "yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va ular yordamida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish" deb ta'riflaydi. U, shuningdek, kreativlik va innovatsiya o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi.[5]

S. S. Gulomov esa innovatsion faoliyatni "texnologik va ilmiy yangiliklar yaratish, ularni iqtisodiy jarayonlarga qo'llash" deb ta'riflaydi. U innovatsiyaning iqtisodiyotdagi o'rnini, uning jamiyatda barqaror rivojlanish va farovonlikka erishishda tutgan roli va ahamiyatini alohida ajratadi.[3]

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 02, февраль

Innovatsion faoliyatga berilgan bu ta'riflardan uning mohiyatini tushunib yetish mumkin. Shu bilan bir qatorda kreativlikning ham ta'rifi to'xtaladigan bo'lsak, Guilford kreativlikni "yangi va original g'oyalarni yaratish" deb ta'riflagan. J. P. Guilford – kreativlikni "fikrlashning kengligi va moslashuvchanligini" o'rganishga qaratdi. [2]

Kreativlik va innovatsiya sohasida yetakchi olimlardan biri Teresa Amabile bo'lib, u kreativlikning tashkilotlar va jamoalardagi ahamiyatini o'rganib chiqqan. Uning tadqiqotlariga ko'ra, kreativlikning rivojlanishi uchun tashqi sharoitlar, shu jumladan muvozanatli motivatsiya, resurslar va qo'llab-quvvatlash muhimdir. U, shuningdek, innovatsion faoliyatda jamoaviy va individual kreativlikning o'zaro bog'liqligini ta'kidlaydi.[4]

Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonida kreativlikning shakllanishiga yordam beruvchi Aqliy hujum, SWOT tahlil, Insert va FSMU metodlaridan foydalanilganda yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

«FSMU» metodi. Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi. Metodning qo'llanilishi jarayonida dastlab, muammoli savol beriladi, fikr va g'oyalar eshitiladi va jamlab boriladi. Fikr va g'oyalar guruhlanadi, Aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi. Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhliy tartibda taqdimot qilinadi. FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi. []

NATIJALAR

FSMU Metodi (Fikr, Shakl, Mavzu, Uslub)Metodning mohiyati: FSMU metodida har bir g'oya yoki yechimni quyidagi to'rtta aspektga ajratish talab etiladi: Fikr (g'oya yoki muammo), Shakl (g'oyaning qanday ifodalanganligi), Mavzu (g'oya yoki muammoning maqsadi), Uslub (g'oyani qanday amalga oshirish usuli).

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 02, февраль

FSMU metodini qo'llash natijasida Kreativlikni shakllantirish borasida quyidagi natijalarga erishish mumkin.

Dastlab, kreativlikni rivojlantirishda fikrlashni kengaytirishdan foydalaniladi: fikrlarni kengaytirishda g'oyalarni tahlil qilish va ularni to'rt turdagi ko'rinishda ajratish orqali har bir jihatni alohida o'ylashga majbur qiladi, bu esa yangi g'oyalar va yondashuvlarning rivojlanishiga olib keladi.

Shuningdek, Turli usullarni birlashtirish ham kreativlikni rivojlantirishning usullaridan bo'lib hisoblanadi.FSMU usuli yordamida fikrlar va yechimlarni turli shakl, mavzu va usullar bo'yicha tahlil qilish orqali, murakkab masalalarni yangi va samarali usullarda hal qilish mumkin.

Shu bilan bir qatorda,Kreativ va tizimli yondashuv asosida bu metod, g'oyalarni tizimli ravishda tahlil qilish rag'batlantiriladi, bu esa yaratish jarayonida ko'proq kreativ va samarali natijalar olishga yordam beradi.

Ushbu metodlarning qo'llanilishi natijasida g'oyalar va yechimlarning ko'pligi sababli ham samaradorlik oshib boradi. Aqliy hujum orqali bir nechta kreativ g'oyalar ishlab chiqiladi, SWOT tahlil orqali imkoniyatlar va tahdidlar aniqlanadi, FSMU metodi esa bu g'oyalarni tizimli tarzda qayta ishlash imkonini beradi.

Har bir metod o'zining yondashuvi orqali yangi, original va samarali yechimlarni yaratishda yordam beradi. Aqliy hujum erkin fikrlashni ta'minlaydi, SWOT tahlil imkoniyatlarni aniqlaydi, FSMU esa har bir g'oyani turli jihatlardan ko'rib chiqadi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Innovatsion faoliyatda kreativlik yangi g'oyalar va yechimlarning yaratilishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Yangi texnologiyalar, mahsulotlar, xizmatlar va biznes modellari yaratish uchun kreativ fikrlash va ijodiy yondashuvlar zarur. Bu ilmiy tadqiqotlar va tajribalar yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish va amalga oshirish imkonini beradi.Ilmiy tadqiqotlar kreativlikning innovatsiyalarni tezlashtirish va ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim jihatlarni o'rganadi. Shu bilan birga, kreativlikning boshqaruv, tashkilotlar va texnologiyalar o'rtasidagi o'zaro aloqalardagi o'rni ilmiy jihatdan o'rganiladi.

Innovatsion faoliyatda kreativlikning ahamiyati, ayniqsa raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan tadqiqotlarda namoyon bo'ladi. Yangi va noyob g'oyalar, mahsulotlar va xizmatlar yaratish orqali korxonalar bozorning

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 02, февраль

o'zgaruvchan talablariga moslashadi, shu bilan birga, o'zlarining bozor ulushlarini kengaytiradi.

Kreativlikning ilmiy ahamiyati shundaki, u muammolarni hal qilishda an'anaviy yondashuvlardan farqli ravishda yangi va noan'anaviy usullarni ishlab chiqishni ta'minlaydi. Bu, o'z navbatida, mavjud ilmiy nazariyalar va metodlarni yangilash yoki ularni ilg'or usullar bilan integratsiya qilish imkoniyatini yaratadi.

Innovatsion faoliyatda kreativlikni qo'llab-quvvatlash uchun oliy o'quv yurtlarida ochiq fikrli muhit yaratish zarur. Bu muhit talabalarni yangi g'oyalarni ilgari surishga, tajriba almashishga va yangiliklarni o'z vaqtida tatbiq etishga undaydi. Pedagoglar o'z talabalarini kreativ fikrlashga rag'batlantirib, innovatsiyalarni samarali joriy etish va raqobatbardoshligini oshirishga erishadilar.

Kreativlik nafaqat iqtisodiy sohada, balki jamiyatning ijtimoiy rivojlanishida ham katta ahamiyatga ega. Yangi ijtimoiy dasturlar, ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash, ekologiya kabi sohalarda innovatsiyalarni amalga oshirish orqali jamiyatdagi muammolarni hal qilishda kreativ yondashuvlar muhim rol o'ynaydi.

Ta'lim tizimida kreativ fikrlash va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish jamiyatning kelajakdagi bilimli va ijodiy avlodini tarbiyalashga yordam beradi. Talabalar va yoshlarni ijodiy fikrlashga o'rgatish, ular kelajakda innovatsion faoliyatda muvaffaqiyatli bo'lishi uchun asos bo'ladi.

Shu tarzda, kreativlikning innovatsion faoliyatdagi o'rni va ahamiyati nafaqat ilmiy nuqtai nazardan, balki amaliyotda ham keng qo'llaniladi va har ikki yo'nalishdagi yuksalishlarni ta'minlaydi.

XULOSA

Innovatsion faoliyatda kreativlikning o'rni va ahamiyati mavzusidagi chegara va o'rganilmagan jihatlar haqida kreativlikning madaniy jihatga qanday ta'sir qilishi haqida ko'plab ilmiy tadqiqotlar mavjud, ammo bu ta'sirni aniq va tizimli ravishda o'rganish talab etiladi. Masalan, turli madaniyatlarda kreativ fikrlash va innovatsion faoliyatning qanday farqlanishi yoki o'zaro ta'siri to'liq o'rganilmagan.

Tadqiqotchilar, turli madaniy va ijtimoiy sharoitlarda kreativlikning rivojlanishi va tatbiqi bo'yicha kengroq va batafsil tadqiqotlar olib borilsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

Kreativlikni o'lchash va baholashda foydalaniladigan metodologiyalar juda cheklangan va ba'zan noaniq. Tadqiqotlarda kreativlikning sub'ektiv va ob'ektiv ko'rsatkichlari bir-biridan ajralib turadi, ammo ular o'rtasidagi muvozanatni topish

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 02, февраль

juda qiyin. Innovatsion faoliyatdagi kreativlikni o'lchash uchun yangi, yanada aniq va ob'ektiv metodologiyalarni ishlab chiqish kerak. Bu metodologiyalar, masalan, kreativ fikrlashning miqdoriy va sifat jihatlarini o'lchash imkonini berishi lozim.

Innovatsion faoliyatda kreativlik va texnologiyalar o'rtasidagi o'zaro aloqalar haqida juda ko'p gapirilgan, ammo ularning amaliy integratsiyasi, ayniqsa texnologik yondashuvlarning kreativlikni qanday rivojlantirishi haqida kamroq o'rganilgan. Tadqiqotlarda kreativlikning texnologiya bilan integratsiyasiga oid aniq misollarni va strategiyalarni keltirish lozim. Texnologiyalarning kreativ jarayonlarni qo'llab-quvvatlashi va yangicha innovatsiyalarni yaratishdagi o'rnini yanada chuqurroq o'rganish zarur.

Tadqiqotlarda kreativlikning motivatsiya va inson resurslari bilan qanday bog'langanligi haqida ba'zi ma'lumotlar mavjud, lekin inson omilining kreativlikka ta'sirini o'rganishning boshqa jihatlarini etarlicha yoritilmagan. Kreativlikni rivojlantirish uchun tashkilotlarda motivatsiya tizimlarini yanada optimallashtirish va xodimlarning ijodiy salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan tadqiqotlar o'tkazish lozim. Inson resurslarini boshqarishdagi yangi yondashuvlar, ayniqsa, xodimlarni rag'batlantirish va kreativlikni qo'llab-quvvatlashga doir ko'proq amaliy tadqiqotlar talab etiladi.

Kreativlik va innovatsiya ijtimoiy tizimlarga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida kamroq izlanishlar mavjud. Innovatsiyalarni joriy etishda ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy omillarning kreativlikka qanday ta'sir qilishini o'rganish zarur. Innovatsion faoliyatni ijtimoiy tizimlarda tatbiq etish jarayonida kreativlikning o'zgaruvchan kontekstda qanday ishlashini chuqurroq tahlil qilish kerak. Ijtimoiy tizimlarda yangi fikrlash va innovatsiyalarni qanday qabul qilish va qo'llab-quvvatlash tizimlarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilishi muhim.

Innovatsion faoliyatda kreativlikning o'rnini va ahamiyatini yanada chuqurroq o'rganish, bu sohada yuzaga kelayotgan yangi muammolarni hal qilishga yordam beradi. Yuqoridagi tavsiyalar bo'yicha tadqiqotlar olib borish, kreativlikni yanada samarali qo'llash va rivojlantirishga olib keladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A. M. Abdukarimov. Innovatsion iqtisodiyotning nazariy asoslari. Tashkent: O'zbekiston fanlar akademiyasi nashriyoti. 2007.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 02, февраль

2. J. P. Guilford. "The Nature of Human Intelligence". - Kreativlikni o'rganishda asosiy manbalardan biri.1967
3. S. S. Gulomov. Innovatsiya va raqobatbardoshlik. Tashkent: O'zbekiston iqtisodiyot akademiyasi.2016
4. T. M. Amabile. Creativity in Context. Westview Press.1996
5. Z. X. Mirzaev. Kreativ iqtisodiyot. Tashkent: O'zbekiston fanlar akademiyasi.2013.
6. Sh. R. Toshpulatov. Innovatsion faoliyatni boshqarish. Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.2015.